

Ko'chmanchilarning dafn marosimlarida ba'zi o'xshashliklar

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, Tarixshunoslik va tarixiy

tadqiqot metodlari, II kurs talabasi Ergasheva Muxlisa

Annotatsiya

Mazkur maqola ko'chmanchilarning dafn marosimlarida ba'zi o'xshashliklar masalasiga bag'ishlangan. Markaziy Osiyo xalqlari uchun yagonalashib, umumiy bir odatlarni yuz berishiga olib keladi. Bugungi kun tarixchi olimlarining fikricha, qadimgi davrlarda proto-Turklar qadimgi Oltoyda yashab, Oltoy hududi chegaralarida yashovchi Skif qabilalaridan ba'zi odatlarni o'zlashtirgan. Keyinchalik ular o'z hududlarini kengaytirishlari natijasida, ularning madaniyati ham ular egallagan joylarga tadbiq qilgan. Shunday qilib, dunyo tarixida qadimgi va bugungi xalqlarda dafn etish marosimiga oid ko'pgina o'xshashliklarga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Tadqiqotchilar ko'chmanchi jamiyatlarni har tomonlama tadqiq qilib ularning dafn etish ananalarida bir-biriga o'xshash jihatlar borligini aniqladi. Qadimgi proto-Turklar, Skiflar, Sarmatlar, bugungi Osetianlar va boshqa xalqlarning dafn etish marosimlari o'rganilib, tahlil qilinganda ko'pgina dafn qilish jarayonlaridagi bir xillik tarixiy faktlar asosida isbotlangan edi. Lekin, shu davrgacha bu o'xshashliklarga nima sabab bo'lgan, qay tariqa dafn etish madaniyati bu xalqlararo tarqalgan degan savollar ochiq qolayotgan edi. Chunki ularning geografik hududi bir-biridan ancha farq qiladi. Quyidagi tadqiqot ishida yuqoridagi savollarga atroflicha javob berishga harakat qilindi.

Biz dafn etish marosimiga oid adabiyotlar va arxeologik tadqiqotlar natijasi asosida e'tibor qaratadigan masalalar quyidagilardan iborat:

- Xitoy tarixchilari tomonidan yozib qoldirilgan qadimgi turkiy qabilalardan boʻlgan Hunnlar¹sardori Attilaning dafn etish marosimi;
- Movses Kalankatuatsi ma'lumotlari asosida milodiy VII asrdagi Dog'iston Hunnlarining dafn etish udumlari;
- Arab sayyohi Ibn Fadlanning Volga Bolgarlari dafn etish ananalari va boshqa ma'lumotlar asosida ularda mavjud boʻlgan bir qancha o'xshaliklarga nazar tashlaymiz. Yuqorida nomlari keltirilgan ko'chamanchilar dafn etish marosimida quyidagi odatlari o'zaro juda o'xshash boʻlgan: o'lik yoki o'zlarining turli a'zolarini kesish; ta'nasini mushtlash yoki qamchi bilan savalash; qabristonga arava yoki chanada olib kelish; turli oziq ovqatlar bilan dafn etish; hayvon yoki odamni marhum uchun qurbonlik qilish; marhum sharafiga ot poygasi uyushtirish kabi odatlar. Shu sababli dafn etish marosimlari juda ham qadimiy tarixga ega bo'lib, proto-Turklar ba'zi marosimlarni chegaradosh Oltoyda yashagan Skiflardan qabul qilgan bo'lsa, boshqalarini Yevroosiyo dashtlarida yashovchi Sarmat-Alanlardan o'zlashtirgan. Bu fikrlarni Tuva va Oltoy(Paziriq)da amalga oshirilgan arxeologik qazishmalar isbotlaydi.

Eng dastlabki yozma manbalardan oq qadimgi qabilalarda mukammal shakllangan dafn etish marosimi mavjud bo'lganligi ayon, tarixchi olim Iordan shunday yozadi, Hunnlar o'z sardorlari Attilaning o'limidan xabar topgach, ananalariga ko'ra quloqlarini va yuzini kesa boshlaydi, uning jasadi dashtga oborishgach maxsus chodirga qo'yiladi. Va Hunnlarning eng yaxshi chavondozi ot bilan jasad qo'yilgan chodirni aylanib otda yurish raqsini nomoyish qiladi. Marhumni eslab yig'lashdan so'ng, uni zambilga ortib qadimgi Hunn tilida "Strava" deb nomlangan juda katta ma'rosimni amalga oshiradi. Unga ko'ra jasad ketma-ket uchta oltin, kumush va temir tobutlarga qo'yilgan. Attilaning jasadi

¹Gunnlar, Hunnlar (lot. Hunni)- milodiy II-IV asrlarda mavjud bo'lgan, turkiy hunnlar Uraloldi va Volga bo'yidagi o'g'ur (ugor) qabilalari bilan aralashuvidan tashkil topgan xalq.

bilan birgalikda, uning barcha xazinasi qo'shib ko'milgan. Dafn etilgan joy sir bo'lishi uchun, barcha qabr qazuvchilar o'sha yerda o'ldirilgan.²

Qadimgi Xitoy tarixchisi Matuanlin va boshqa yozuvchilar bergan ma'lumotlarga ko'ra VI-VII asrlarda qadimgi Turklarning dafn etish marosimida jasadni maxsus chodirga qo'yish bilan boshlagan. So'ngra marhumning erkak va ayol qarindoshlari uning sharafiga ot va sovlug qo'yni qurbonlik qilib, chodirni yetti marta aylangan. Chodirga kirish joyida ular bir to'da bo'lib, o'zlarining yuzini yetti marta kesgan va maxsus kunda marhum bilan birgalikda unga tegishli barcha buyumlar va qurbon qilingan otni birga dafn etishgan. O'lgan odamni qarindoshlari yilning maxsus kunida qabrga kul olib kelgan, ular marhum sharafiga qurbonliklar qilib, ot poygalari tashkil qilgan. Marhum vafot etgan va dafn etilgan kunlari qarindoshlari yuzlarini kesishgan. Biroz vaqtdan so'ng esa, qabr yaqinida maxsus bino bilan uning portreti(haykali) barpo etilib, atrofiga toshlar qo'yilardi va bu toshlar uning o'ldirilgan dushmanlarining ramziy ma'nosi hisoblanardi. Dafn marosimlari vaqtida so'yilgan hayvonlar boshi maxsus tayoqlar ustiga o'rnatilardi.³

Vizantiyalik tarixchi shunday yozadi: "milodiy VI asr oxirlarida Vizantiyalik elchi Valintin G'arbiy Turkutlarning yurtiga buyuk hoqon Dilzivil vafot etgan kuni tashrif buyuradi. G'arbiy turkutlar dafn marosimi kuni yuzlarini timdalab aza tutadi va zorlanib yig'laydi. Dilzivilning o'g'li Turksanf otlarni qurbonlik qilishni buyuradi. Shundan so'ng u tutqinlikda saqlanayotgan to'rt asirni marhum sharafiga qurbonlik qiladi. Chunki, ularning nazdida keyingi dunyoda o'sha qullar tirik odamlar haqida marhumlarga ma'lumot berishi kerak bo'ladi."⁴

Alban tarixchisi Movses Kalankatuatsi xuddi shu kabi dafn etish udumini milodiy VII asrda Dog'iston Hunnlarida ham mavjud bo'lganligini bayon qiladi. Uning ma'lumotlariga qaraganda dafn etish marosimi kuni marhum qarindoshlari o'zlarining yuzlari va tanalarini kesishgan. Ular jasadga pichoq yoki qilich bilan jarohat yetkazishgan, va dafn etish marosimi qo'shiqlar kuylash, o'zaro raqs

² Иордан. О происхождении и деяниях гетов. Москва: Изд. вост. лит.: 1960. С.117-172.

³ Менандр. В. "Продолжение истории Агафиевой". Санкт-Петербург.1860.С.16: 421-422.

⁴ Мовсэс. К. История страны Алуанк. Ереван: АН Ар. ССР. 1984. С. 258.

tushish, nog'orlar chalishga ulanib ketgan. Qabriston yaqinida Hunnlar qilichlarda jang qilib, otlar poygasi tashkil qilardi.⁵

Tarixchi olim A. P. Novoseltsev esa Dog'iston Hunnlari aslida Xazarlar bo'lgan deyan g'oyani ilgari suradigan tadqiqotchi hisoblanib, Hunnlarning dafn etishdagi odatlari qadimgi Skif qabilalari bilan o'xshash ekanligini tarixiy asoslar bilan ulardagi izchilikni isbotlab bergan.⁶

Arab sayohhi Ibn Fadlan Volga Bolgarlarida ham shu kabi dafn marosimi mavjud ekanligini X asrda yozib qoldiradi. Volga Bulg'orlari ham jasadni qabristonga aravalarda olib kelib, uni katakombaga (yer ostida tayyorlangan maxsus qabr) ko'madi. Dafn marosimining qolgan qismi esa qadimgi Skif yoki hozirgi Osetianlarnikiga juda ham o'xshash bo'lgan. Misol uchun, Bolgar erkaklari qabr yaqinida juda qattiq baqirib yig'lashgan va bolgar qullari o'zlarini qamchi bilan savalashgan. Keyin barchalari jasad dafn etilgan joyga qo'llarini qo'yib marhum yod etishib, ikki yil davomida yig'idan to'xtamagan. Ikki yildan so'ng esa marhum qarindoshlari aza tugashi munosabati bilan katta ziyofat, bazm qilgan⁷.

A. P. Kovalevskining fikriga ko'ra jasadni katakombaga qo'yish ananasi qadimi Sarmat-Alanlarda ham mavjud edi⁸. Yevroosiyo dashtlarida yashovchi qabilalar ya'ni skiflarda ham shu kabi odatlar mavjudligini qadimgi yunon tarixchisi Geradot V asrda yozib qoldirgan edi. Qadimgi tarixchi shunday bayon qiladi, Skiflar humdori vafotidan so'ng uni mumiyolab, aravaga solib qirq kun davomida Skif aslzodalari yashaydigan chodir atrofida aylantiradi. Skiflar marhum sharafiga quloqlarini, qo'llarini, yuzlarini, burunlarini kesib, qo'llariga kamon o'qlarini sanchadi. Skiflar jasadni maxsus qabrga olib kelgach, uni turli zebziynatlar, marhum sharafiga qurbonlik qilingan hayvonlar va qullar bilan

⁵ Мовсэс. К. Там же. С. 27.

⁶ Новосельцев А. П., Хазарское государство и его роль в истории Восточной Европы и Кавказа. Москва: Наука. 1990. С.145.

⁷Ковалевский А. П., Книга Ахмеда ибн-Фадлана о его путешествии на Волгу в 921-922 гг. Харьков: ХГУ. 1956.С.

⁸ Ковалевский А. П. Там же. С. 140-230.

birgalikda dafn qilgan. Bir yildan so'ng esa Skiflar juda katta ziyofat uyushtirib, ko'plab qullarni qurbonlik qilar edi. Va yana Geradotni yozishicha, boshqa oddiy Skiflar uchun bundan soddaroq dafn marosimi o'tkazilgan.⁹

Qadimgi Alanlarning avlodlari hozirgi Osetianlarda ham yuqoridagi marosimlar saqlanib qolingan. Antropolog olimlarning ma'lumotiga qaraganda Osetianlarda quydagi odatlar hamon mavjud: motam tutish odati; o'lik bilan kesilgan yuzlar bilan dardlashish; tanani qamchi va mushtlar bilan savalash; jasadni arava yoki chanada qabristonga olib kelish; katta ziyofat tashkil qilish; marhum sharafiga ot bag'ishlash, o'lik sharafiga ot poygasini tashkillashtirish va boshqa udumlar. Ularning ichida otni qurbonlik qilishga alohida e'tibor berilgan, uni dafn marosimi amalga oshiriladigan kun zeb-ziynatlar bilan bezalgan, marhumga tegishli barcha mol-mulklarni unga yuklanib jasad yoniga olib kelingan. Qabilaning eng keksasi bu ot keyingi olamda unga xizmat qilishini aytib nutq so'zlagan. Va ot tuyog'i ostida vino to'la ko'zalarni sindirishgan. So'ngra ot murda atrofida uch karra aylantirilib, otni qulog'i va yoli kesib qabrga qo'yilgan. Qarindoshlari bevani sochini kesib, sochini jasad bilan qo'shib qabrga ko'mar edi. B. Kaloyev ma'lumotlariga ko'ra, qadimgi fors ananalariga ko'ra marhumning oti va uning xotini birga ko'milishida yuqoridagi udumlar saqlanib qolganligini ko'rishimiz mumkin. Osetianlar marhum o'lgan birinchi yilida tez-tez uni xotirlash marosimini amalga oshiradi¹⁰.

Hozirgi Qorategin va Darvoz tojiklarining geografik izolatsiyalanganligi sababli hamon qadimgi fors ananalarini davom ettirib keladi. Dafn etish marosimida ular baqirib yig'lab, quloqlarini, yuzlarini kesadi va boshlariga mushtlab aza tutadi. Erkak va ayol qarindoshlar marhum sharafiga maxsus raqsni

⁹ Геродот. История в девяти книгах. Ленинград: Наука. 1972.С. 600.

¹⁰ Калоев, Б. А., Обряд посвящения коня у осетин. VII международный конгресс антропологических и этнографических наук. 1964. Москва:8.С. 1964: 1-7;1984: 72-78.

ijro etib, uni jasadini katakombada ko'madi. Va marhum sharafiga ziyofat berish udumi majburiydir.¹¹

Ko'chmanchilarga xos bo'lgan yana bir an'ana bu marhum sharafiga turli shakldagi haykallar bunyod qilishdir. L. R. Kizlasov Tuvadan o'liklar uchun toshdan yasalgan haykallarni topdi. Bu topilma Xitoy tarixchilarining yuqorida bergan dalillarini yana bir bor isbotlab, L. R. Kizlasov bayon qilishicha Markaziy Osiyoda bu odat Kumanlarda, Mo'g'ullarda va boshqa o'rta asr ko'chmanchilarida ham mavjud bo'lgan. Haykallar faqatgina toshlardan qilinmay, kigizdan ham yasalib, bayram kunlari ularni yangilab turar edi.¹²

Yu. A. Rapoport Xorazmda arxeologik qazishmalar olib borayotganda o'lgan odamning terrakota¹³ haykalini topadi va uning fikricha bu odat Yevroosiyo dashtlarida qadimdan mavjud bo'lgan¹⁴. Bugungi Osetiyaliklarda "O'liklar tuni" asosan bu yangi yil kechasiga to'g'ri kelib, ular ushbu kunda marhumlarning manekenini yasab, ularni turli noz-ne'matlar bilan boqishadi. Keyingi butun kun davomida ham oziq-ovqat to'la dasturxon yig'ilmaydi.¹⁵

Qadimgi ko'chmanchilarga xos bo'lgan odatlar ba'zi turk jamoalarida hali-hanuz saqlanib kelinyapti, shu kabi ananalar mavjud bo'lgan xalqlar sirasiga bugungi Chuvashlarni kiritamiz, etnografik izlanishlar natijasiga ko'ra, Chuvashlar marhumni xotirlash kunidan bir kun oldin, yog'ochdan uning haykalini yasaydi, bu ularning tilida "upa" deb ataladi. Xotirlash kuni esa, u uyga olib kelinib, marhum kiygan kiyimlar bilan bezatiladi. Kun davomida dasturxon yozib, marhum undan tanavvul qiladi deb ishonadi. Keyingi kun "upa" qabristonga olib kelinib, qabr yoniga joylashtiriladi¹⁶.

¹¹ Таджики Каратеги́на и Дарваза. Душанбе. 1979. С. 224-745.

¹² Кызласов Л. П., История Тувы в средние века. Москва: МГУ. 1969.С. 212.

¹³ Куйдирилган qizg'ish-jigarrang gildan ishlangan haykal.

¹⁴ Иордан. Там же. С.86-89.

¹⁵ Дюмезиль, Ж., Скифы и нарты. Москва: Наука.1990. С. 189.

¹⁶ Менандр. В. Там же. С. 190.

Yuqorida keltirilgan dalillar asosida shuni ishonch bilan aytish mumkinki, qadimgi ko'chmanchilarda mavjud bo'lgan odatlar O'rta Osiyo xalqlarida hanuzgacha saqlanib qolingandir. Unchalik ko'p bo'lmagan vaqt oldin, Qozoq, Qirg'iz, Turkman va boshqalar marhum sharafiga uni dafn etish kuni katta ot poygalari tashkil qilar edi; qarindoshlari baqirib yig'lardi; jasad ko'milgan joyga turli hayvonlarni olib borib so'yib, katta ziyofatlar uyishtirilardi. B. A. Kaloyev ma'lumotlariga qaraganda, O'rta Osiyoda bu ananalar keng tarqalgan¹⁷.

Yuqorida keltirilgan tarixiy faktlar asosida qadimgi ko'chmanchilarning dafn marosimlariga oid bo'lgan o'xshashliklar:

1. Marhum vafoti uchun qurbonlik sifatida, uning qarindoshlari yuzlarini timdalab kesishi, o'zlarini mushtlashi va qamchi bilan savalashi kabi odatlar bor edi.
2. Bu dunyodan vidolashuv marosimi sifatida, jasadni arava yoki chanada olib kelish.
3. Marhumning ruhi oziqlanishi uchun turli mol-mulklar bilan dafn qilish va uni xotirasiga ziyofatlar berish
4. Marhum bag'ishlab insonlar yoki hayvonlar qurbonlik qilingan chunki, so'yilgan hayvonlar va odamlar marhum uchun keyingi dunyoda xizmat qilishi yoki tirik odamlardan marhumlarga xabarchi bo'ladi deb hisoblangan.
5. O'lgan odam ruhiga ot poygalari tashkil etilgan, chunki eng yaxshi otlarning ruhi marhumlar uchun keyingi hayotda xizmat qilishi nazarda tutilgan.
6. Marhum uchun maneken yasalgan, chunki xotirlash kuni uning ruhi shu manekenga keladi deb bilishgan.

Qadimgi xalqlarda bu kabi bir o'xshashliklar tasodifiy hodisa ekanligiga ishonish ancha qiyin.

Tarixchi olimlarning fikricha bunga faqatgina bitta sabab o'zaro ta'sir bo'lishi mumkin, lekin ularga noma'lum bo'lgan jihat bu qachon va qanday yuz bergan bo'lishi mumkin?.

¹⁷ Калоев, Б. А. Там же С. 65-66].

A. P. Novoseltsev, B. A. Kaloyev va boshqa tadqiqotchilarning fikricha bu izchilikka sabab ilk o'rta asrlarda yuz bergan o'zaro assimilatsiya hodisasidir. Ularning tahminicha Hunnlar Turon dashtlariga o'z hududlarini qo'shib olganda turli qadimiy xalqlar o'sha yerlarda mavjud bo'lgan. Turklarning bu yerdagi siyosiy ustunligi boshqa qabilalarning ular bilan assimilatsiya bo'lishiga olib kelgan. Bu albatta bosqichma-bosqich asrlar davomida yuz bergan bo'lish kerak deb hisoblashadi¹⁸. Tarixchi olim D. Yeremiv izlanishlariga ko'ra bu qabilalarning odatlarining o'zaro qorishuvi milodiy V asrda Hunnlar va Qadimgi Turkklar davrida yuz bergan. Qadimgi Markaziy Osiyoda yashovchi xalqlarda ilk aloqalar qadimgi Skif qabilalari davrida yuz bergan. Quyidagi arxeologik qazishmalar bu fikrga dalil bo'lishi mumkin. M. P. Griaznovning Tuva shahridagi Arjanda olib borgan izlanishlari natijasida yuqoridagi fikrlarga asos bo'lgan yodgorliklar qazilmalar natijasida topilgan. O'sha qabrdagi elementlar qadimda Geradot tasvirlagan udumlarga juda o'xshash edi. Bu qazishmalarga ko'ra bu yerda hukmdor va uning malikasi, yettita keksa odam va bir yosh yigit yettita ot bilan dafn etilgan edi. Va qabr atrofida 160dan ziyod ot qo'shib ko'milgani aniqlandi. M. P. Griaznov bayon qilishicha bu qabr mill.avv VIII-VII asrlarga tegishlidir.

Bu tadqiqot shuni isbotlaydiki, mill.avv VII asrda Qora Dengiz bo'ylaridan toki Markaziy Osiyo hududlarigacha bo'lgan joylarda Skif-Sibirliklar madaniyati o'zaro qorishib boradi.¹⁹ Biroq, L. R. Kizlasov Arjandagi qabrlarni mill.avv VII-VI asrlar bilan bog'laydi. Uning fikricha bu yerdagi madaniyatni asosini g'arbiy Sak qabilalari yaratgan. Yoki, Tuva aholisini Skiflar tashkil qilgan va Saklar ular bilan qorishib ketgan²⁰. Oltoydan topilgan Paziriq qabr yodgorliklari hammasidanda qiziqroq. O'tgan asrning 60 yillarida S. I. Rudenko Oltoyda

¹⁸Новосельцев, А. П., Хазарское государство и его роль в истории Восточной Европы и Кавказа. Москва: Наука. 1990.С. 264.754.

¹⁹ Грязнов, М. П., Аржан: царский курган раннескифского времени. Ленинград: Наука. 1980. С. 45-59.

²⁰ Кызласов Л. П., История Тувы в средние века. Москва: МГУ. 1969.С. 212.

joylashgan Paziriqni qazishmalar natijasida aniqlaydi. Uzoq davrlar mobaynida Paziriq muzlik qarida bo'lganligi uchun qabr hech bir ziyonsiz saqlangan edi. Shu sababli olimlarda dafn etish marosimiga mukammal ta'rif berish imkoniyati vujudga keldi. Paziriqda aniqlangan diniy marosimlar qadimgi Skif dafn etish odatlari bilan juda o'xshash edi. Yana shu bilan birgalikda Geradot ta'svirlagan odatlar bilan birgalikda, bir qancha belgilari Oltoy Turkclariniki bilan ham mutanosib kelardi.

1. Geradot Skiflarga bergan ta'rif kabi hukmdor va o'smirlarni ko'mishgan bo'lsa, qadimgi Turkclarga o'xshash jihati dafn etish bilan bog'liq marosimlar aniq belgilangan vaqtda(bahor va kuzda) amalga oshirilganligidir.

2. "Keyingi hayot" (ularning e'tiqodi bo'yicha) G'arbda joylashganligi sababli, ularning boshi sharqqa yotqizilib, ularning yuzi g'arbga qaratilgan; hukmdor va o'smirlarni mo'miyolash xuddi Geradot bayon qilganidek amalga oshirilgan edi.

3. Marhum badanidagi bazi parchalarning yo'qligi u o'lgandan so'ng uni timdalash udumi bilan bog'liqligidir(Geradot Massagetlar va Issedonlar misolida keltiradi).

4. Qurollar, boshqa buyumlar, uning xotini va oti Geradotning Skiflar bayoni kabi joylashtirilgan. Demak, bundan xulosa qilish mumkinki, marhumni mo'miyolash nafaqat qadimgi Misrda balki qadimgi ko'chmanchi Skiflarda ham mavjud bo'lgan. S. I. Rudenko fikricha Oltoyning Paziriq yodgorligini mill.avv V-IV asrlardaga davrlashtirish mumkin. Demak, Oltoydagi qazishmalardan shuni xulosa qilish mumkinki, qadimgi xalqlarda yagona odat va udumlarni shakllanishiga Skif qabilalari sabab bo'lgan. Chunki, ular ko'chmanchilik hayot tarzida yashovchilar bo'lganligi uchun o'z madaniyatlarini keng miqyosda yoyadi.

Va bu odatlar Markaziy Osiyo xalqlari uchun yagonalashib, umumiy bir odatlarni yuz berishiga olib keladi²¹. Bugungi kun tarixchi olimlarining fikricha, qadimgi davrlarda proto-Turklar qadimgi Oltoyda yashab, Oltoy hududi

²¹ Руденко С. И., Культура населения Горного Алтая в скифское время. Москва—Ленинград: АН СССР. 1953.С. 62-69; 326-361.

chegaralarida yashovchi Skif qabilalaridan ba'zi odatlarni o'zlashtirgan. Keyinchalik ular o'z hududlarini kengaytirishlari natijasida, ularning madaniyati ham ular egallagan joylarga tadbiq qilgan. Shunday qilib, dunyo tarixida qadimgi va bugungi xalqlarda dafn etish marosimiga oid ko'pgina o'xshashliklarga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Adabiyotlar

- 1.Артамонов, М. И., История хазар. Ленинград. 1962. С. 342.
- 2.Геродот. История в девяти книгах. 1972. Ленинград. С. 600.
- 3.Гмыря, Л. Б., Прикаспийский Дагестан в эпоху Великого переселения народов. Махачкала. 1993. С. 367.
- 4.Грязнов, М. П., Аржан: царский курган раннескифского времени. Ленинград: Наука. 1980. С.62.
5. Дюмезиль, Ж., Скифы и нарты. Москва: Наука. 1990. С. 288.
- Еремеев, Д. Е., “К семантике тюркской этнонимии”. Этнонимы. Москва: Наука. 1970. С. 135-150.
6. Иордан. О происхождении и деяниях гетов. Москва. 1960.С. 436.
7. Калоев, Б. А., Обряд посвящения коня у осетин. VII международный конгресс антропологических и этнографических наук. Москва. 1964. С. 8.
8. -----, “Похоронные обычаи и обряды осетин в XVIII – начале XIX вв.”. Кавказский этнографический сборник. Т. VIII. Москва: Наука. 1984. С. 72-105.
- 9.-----, “Этнографические данные о связях этногенеза осетин со Средней Азией”. Калоев Б. А. Осетинские историко-этнографические этюды. Москва: Наука. 1999. С. 56–78.
10. Каховский В. Ф., Происхождение чувашского народа. 1965. С. 262.
11. -----, “Дохристианский погребальный обряд чувашей как материал к этногенезу”. Болгары и чуваш. Чебоксары. 1984. С. 180–202.
13. Ковалевский А. П., Книга Ахмеда ибн-Фадлана о его путешествии на Волгу в 921-922 гг. Харьков: ХГУ. 1956. С. 348.
14. Кызласов Л. П., История Тувы в средние века. Москва: МГУ. 1969. С. 212.
- 15.-----, Древняя Тува. Москва: МГУ. С. 207.
- 16.Менандр. В. “Продолжение истории Агафиевой”. Санкт-Петербург. 1860 .С. 311-470.
- 17.Мовсэс. К. История страны Алуанк. ССР. 1984. С. 258.
- 18.Новосельцев, А. П., Хазарское государство и его роль в истории Восточной Европы и Кавказа. Москва: Наука. 1990. С. 264.754
- 19.Руденко С. И., Культура населения Горного Алтая в скифское время. Москва–Ленинград. 1953. АН СССР С. 404.
- 20.Таджики Каратегина и Дарваза. 1979. Душанбе. С. 224-745